



UDK: 930.85:002(575.1)"13/14"

Matluba RAKHMANKULOVA,

PhD, O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi yetakchi ilmiy xodimi, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: rbmatluba@gmail.com, ORCID: 0009-0005-0875-8822

Professor, tarix fanlari doktori Sh.Choriyev taqrizi asosida

HISTORIOGRAPHY OF MANUSCRIPT PRODUCTION DURING THE REIGN OF AMIR TIMUR

Annotation

The article examines XX–XXI century scholarship on manuscript production during the reign of Amir Timur. Written testimonies, the manuscript tradition of Nizam al-Din Shami's Zafarnama, studies of the artistic environment of Samarkand, and the material foundations of book production are compared. Historiographical, historical-comparative, source-critical, codicological, and provenance methods are employed. The analysis identifies a methodological shift from cataloguing and stylistic attribution toward interregional exchange, mobility of craftsmen, manuscript materiality, and verification of attribution. Timurid Samarkand is interpreted not as a transplanted ready-made school, but as an environment formed through the interaction and transformation of the manuscript traditions of Transoxiana, Iran, and Iraq.

Keywords: Amir Timur, manuscript production, Samarkand, historiography, manuscript, patronage, Zafarnama, Khwaja Abd al-Hayy, paper, miniature painting, codicology.

ИСТОРИОГРАФИЯ КНИЖНОГО ДЕЛА ЭПОХИ АМИРА ТЕМУРА

Аннотация

В статье анализируется изучение книжного дела эпохи Амира Темура в историографии XX–XXI вв. Сопоставлены письменные свидетельства, рукописная традиция «Зафар-наме», исследования художественной среды Самарканда и материальных основ книжного производства. Применены историографический, историко-сравнительный, источниковедческий, кодикологический и провенансный методы. Выявлен переход от каталогизации и стилистической атрибуции к изучению межрегиональных связей, мобильности мастеров, материальности рукописи и проверке атрибуций. Самаркандская книжная среда рассматривается как результат взаимодействия и трансформации традиций Мавераннахра, Ирана и Ирака.

Ключевые слова: Амир Темура, книжное дело, Самарканд, историография, рукопись, патронаж, Зафар-наме, Ходжа Абдулхай, бумага, миниатюра, кодикология.

AMIR TEMUR DAVRI KITOBAT ISHI TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya

Maqolada Amir Temur davri kitobat ishining XX–XXI asrlar tarixshunosligida o'rganilishi tahlil qilinadi. Ibn Arabshoh va Do'st Muhammad xabarlarini, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si qo'lyozma an'anasi, Samarqand badiiy muhiti va kitobatning moddiy asoslariga oid tadqiqotlar qiyosiy o'rganildi. Tarixshunoslik, tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, kodikologik va provenans tahlili usullari qo'llanildi. Natijada mavzu tadqiqida kataloglashtirish va uslubiy tavsifdan matnshunoslik, mintaqalararo aloqalar, ustalar migratsiyasi, materiallik va atribusiyani verifikatsiya qilishga tomon metodologik o'zgarish yuz bergani aniqlandi. Samarqand kitobat muhiti tayyor badiiy maktabning ko'chirilishi emas, Movarounnahr, Eron va Iroq an'analari o'zaro ta'siri va transformatsiyasi natijasi sifatida baholandi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, kitobat ishi, Samarqand, tarixshunoslik, qo'lyozma, saroy patronaji, Zafarnoma, Xoja Abdulhay, qog'ozchilik, miniatyura, kodikologiya.

Kirish. Amir Temur hukmronligi davri Movarounnahr tarixida siyosiy markazlashuv bilan birga ilm-fan, tarixnavislik, hunarmandchilik va kitobat ishining yangi sharoitlarda rivojlanishi bilan ajralib turadi. Samarqandning saltanat poytaxtiga aylanishi turli hududlardan olimlar, xattotlar, musavvirilar va hunarmandlarning jamlanishiga imkon yaratdi. Biroq saroy kutubxonasi, kitobat ustaxonasi va qo'lyozma ishlab chiqarishning ma'muriy mexanizmlari haqidagi bevosita dalillar cheklangan. Shu sababli keyingi Herat tajribasini XIV asr oxiri Samarqandiga avtomatik ko'chirish tarixiy anaxronizmga olib kelishi mumkin.

Ibn Arabshoh Amir Temurning tarixiy asarlar, payg'ambarlar qissalari va podshohlar siyratini o'qitib tinglaganini qayd etadi [1]. Bu xabar hukmdorning tarixiy bilim va yozma madaniyatga qiziqishini ko'rsatadi, ammo undan markazlashgan davlat kutubxonasi mavjud bo'lgan degan qat'iy xulosa chiqarib bo'lmaydi. Kitob mutolaasi,

tarixnavislik, qo'lyozma to'plash va kitob ishlab chiqarish o'zaro bog'liq, biroq aynan bir hodisa emas.

Maqolaning maqsadi XX–XXI asrlar tarixshunosligida Amir Temur davri kitobat ishiga berilgan ilmiy baholarni tizimlashtirish, asosiy konsepsiyalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish va Samarqand kitobat muhitining shakllanishiga oid qarashlarning metodologik evolyutsiyasini aniqlashdan iborat. O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosini chuqur o'rganish va xalqaro ilmiy muomalaga kiritishga qaratilgan davlat siyosati mazkur yo'nalishdagi manbashunoslik va qo'lyozmashunoslik tadqiqotlarining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid tadqiqotlarni manbaviy bazasi va metodologiyasiga ko'ra bir necha yo'nalishda ko'rish mumkin. Birinchi yo'nalish Amir Temur davri tarixnavisligi va yozma manbalarini o'rganishga tegishli. John E. Woods Temuriylar tarixnavisligini siyosiy hokimiyat va sulolaviy xotira bilan bog'liq jarayon sifatida

tahlil qilgan [2]. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si qo'lyozma an'anasini o'rganishda Charles Rieu katalogi dastlabki ilmiy bosqichlardan biri bo'ldi [4]. Felix Tauer qadimiy nusxalarni qiyoslab, asarning tanqidiy matnini tayyorladi [5; 6]. B. Ahmedov esa bu merosni O'zbekiston manbashunosligida davom ettirdi [7].

Ikkinchi yo'nalish tasviriy san'at va qo'lyozma bezaklariga bag'ishlangan. F.R. Martin Temuriylar davri tasviriy materiallarini alohida ilmiy muammo sifatida ko'rdi [8], Basil Gray esa Samarqand va Temuriylar badiiy muhitining fors miniatyura san'ati tarixidagi o'rnini belgilashga intildi [9]. Ularning ishlari muhim ilmiy korpus yaratgan bo'lsa-da, dastlabki atribusiyalarning ayrimlari keyingi tadqiqotlarda qayta ko'rib chiqildi.

Uchinchi yo'nalish saroy patronaji, ustalar migratsiyasi va mintaqalararo aloqalarni o'rganadi. Thomas Lentz va Glenn Lowry turli siyosiy markazlardan Samarqandga kelgan san'atkorlar, hunarmandlar va qo'lyozmalarni yangi Temuriy saroy madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar sifatida tahlil qiladilar [3]. To'rtinchi yo'nalish kitobatning moddiy-texnologik asoslariga qaratilgan. R.G. Mukminova Samarqand hunarmandchiligi va qog'oz ishlab chiqarishini hujjatlar asosida o'rgangan [10], Gulru Necipoğlu qog'ozning texnologik bilimlarni uzatishdagi roliga e'tibor qaratgan [11].

Beshinchi yo'nalish Xoja Abdulhay Bag'dodiy va unga nisbat berilgan tasvirlar tarixshunosligi bilan bog'liq. Do'st Muhammadning Bahrom mirzo muraqqa'i muqaddimasi keyingi atribusiyalarga kuchli ta'sir ko'rsatgan [12]. Priscilla Soucek esa Abdulhay nomi bilan bog'langan asarlarning uslubiy va texnik jihatdan bir xil emasligini ko'rsatib, an'anaviy atribusiyalarni tanqidiy qayta ko'rib chiqdi [13]. Diez albomlarining zamonaviy kompleks tadqiqi yozma, epigrafik, moddiy va provenans dalillarini birlashtirish imkonini berdi [14].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixshunoslik, tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, kodikologik va provenans tahlili usullaridan foydalanildi. Tarixshunoslik usuli ilmiy qarashlarning o'zgarishini, tarixiy-qiyosiy usul esa “Samarqand maktabi”, “saroy kutubxonasi”, “kitobat ustaxonasi” va “patronaj” tushunchalarining turli davrlarda qanday talqin qilinganini aniqlashga xizmat qiladi. Manbashunoslik tahlili Ibn Arabshoh va Do'st Muhammad xabarlarining imkoniyat va cheklavlarini baholashga qaratildi [1].

Kodikologik yondashuv qo'lyozmaning sanasi, kolofoni, xati, qog'oz, bezagi, muqovasi va keyingi saqlanish tarixini o'zaro bog'liq dalillar sifatida ko'rishni talab qiladi. Provenans tahlilida yaratilgan joy, dastlabki buyurtmachi, keyingi egalari va saroy kolleksiyasiga kirish bosqichlari farqlanadi. Qo'lyozmaning keyinchalik Temuriylar xazinasida bo'lishi uning Amir Temur buyurtmasi bilan yaratilganini avtomatik tasdiqlamaydi; xuddi shuningdek, bir ustaning Samarqandga kelishi unga nisbat berilgan barcha asarlarning shu yerda yaratilganini isbotlamaydi.

Tahlil va natijalar. Amir Temur davri kitobat tarixshunosligida yozma dalil bilan institutsional rekonstruksiya farqlash muhimdir. Ibn Arabshoh xabari hukmdorning kitobxonlik madaniyatini tasdiqlaydi [1], Woods esa tarixnavislikni keyingi Temuriylar sulolaviy xotirasining shakllanishi bilan bog'laydi [2]. Biroq mavjud manbalar Amir Temur saroyida keyingi Herat kutubxonalarga o'xshash qat'iy ma'muriy tuzilmani tiklash uchun yetarli emas. “Saroy kitobat muhiti” tushunchasi hozirgi dalillar doirasida aniqroqdir.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si rasmiy tarixnavislikning muhim yodgorligi bo'lib, hukmdor faoliyatini yozma shaklda tartibga solish va tarixiy axborotni matnga aylantirish jarayonini ko'rsatadi. Rieu qo'lyozmalarni kataloglashtirdi [4], Tauer esa nusxalarni qiyoslab tanqidiy

nashr yaratdi [5; 6]. Bu tarixshunoslikda tavsifdan matnshunoslikka o'tishni ifodalaydi. Shu bilan birga, 1405 yildan keyin ko'chirilgan nusxalarni Amir Temur davri Samarqand kitobatining bevosita moddiy namunasi sifatida ishlatish mumkin emas; ular avvalo Temur davrida shakllangan tarixnavislik an'anasining davomiyligini ko'rsatadi.

Samarqand kitobat muhitini tushuntirishda Lentz va Lowry konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega [3]. Ular Eron va Iroqning turli markazlaridan kelgan ustalar, qo'lyozmalar va badiiy tajribalarni Temuriy saroy madaniyatining shakllanish omillari sifatida ko'radilar. XIV asr ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida Sheroz, Kirmon va Bag'dodda yaratilgan, keyinchalik Temuriy muhit bilan bog'langan qo'lyozmalar bu merosning geografik jihatdan bir xil emasligini ko'rsatadi. Boshqa markazda yaratilgan va keyin Temuriylar tasarrufiga o'tgan kodeksni Samarqand mahsuli bilan aynanlashtirish mumkin emas.

Shu sababli “Samarqand maktabi”ni tayyor badiiy tizimning boshqa hududdan ko'chirilishi sifatida izohlash soddalashtirilgan modeldir. Manbalar Sheroz, Bag'dod, Kirmon va Movarounnahr an'analari o'zaro ta'sirga kirishgan murakkab jarayonni ko'rsatadi [3]. Samarqandning tarixiy o'rni mahalliylik bilan emas, turli an'analarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi saroy muhitida birlashtirish imkoniyati bilan belgilanadi.

Kitobat tarixining moddiy o'lchovi ham muhim natijalarni berdi. Mukminova Samarqand qog'ozchiligi va hunarmandchiligi iqtisodiy tarix doirasida o'rgandi [10]. Bu qo'lyozma ishlab chiqarishni faqat xattot yoki musavvir faoliyati bilan cheklamaslik zarurligini ko'rsatadi: qog'ozchi, siyoh va bo'yoq tayyorlovchi, muzahhib, jadvalkash va muqovasoz mehnati ham kitobat jarayonining tarkibiy qismidir. Necipoğlu qog'ozning me'moriy amaliyot va geometrik chizmalar orqali texnologik bilimni uzatishdagi rolini ko'rsatib, masalani kengroq intellektual-moddiy kontekstga olib chiqdi [11]. Biroq Samarqand qog'ozining xalqaro bozordagi mavqeini mutlaqlashtirish mavjud dalillardan tashqariga chiqishi mumkin.

F.R. Martin va Basil Gray asarlari Samarqand tasviriy muhitini ilmiy muomalaga kiritishda katta rol o'ynadi [8; 9]. Martin ayrim hoshiyaviy va monumental tasvirlarni Samarqand bilan bog'lashga urindi. Lentz va Lowry ham katta formatli tasvirlarni dastlabki Temuriy saroy san'ati kontekstida tahlil qildilar [3]. Biroq ularning funksiyasi va yaratilgan joyiga oid ayrim xulosalar bevosita tarixiy fakt emas, uslub, format va kompozitsiyaga tayangan ilmiy rekonstruksiya. Muzaffariy Sheroz va Jaloiriy Bag'dodga yaqin xususiyatlarning mavjudligi “Samarqand uslubi”ni mutlaqo mahalliy hodisa sifatida talqin qilishni qiyinlashtiradi.

Xoja Abdulhay Bag'dodiy tarixshunosligi metodologik o'zgarishning yaqqol misolidir. Do'st Muhammad uni Jaloiriy muhit va keyinchalik Amir Temur saroyi bilan bog'laydi [12]; Gray ham bu an'anani davom ettirgan [9]. Soucek esa Abdulhayga nisbat berilgan asarlarning bir xil emasligini ko'rsatib, keyingi manbalardagi nomni avtomatik atribusiya dalili sifatida qabul qilishni shubha ostiga oldi [13]. Diez albomlaridagi epigrafik ma'lumotlar Abdulhay nomi bilan bog'liq badiiy vorislikni tasdiqlovchi yangi dalillar berdi, ammo ular albomdagi barcha tasvirlarni bitta ustaga nisbat berishga asos bo'lmaydi [14].

Shunday qilib, XX–XXI asrlar tarixshunosligida to'rt asosiy metodologik siljish kuzatiladi: kataloglashtirishdan matnshunoslikka; uslubiy atribusiyadan mintaqalararo almashinuvni o'rganishga; san'at asaridan qo'lyozmaning moddiy tuzilishini tahlil qilishga; an'anaviy atribusiyadan kodikologik, epigrafik va provenans dalillari asosidagi verifikatsiyaga. Ushbu evolyutsiya Amir Temur davri

Samarqand kitobat muhitini keyingi Herat tajribasining tayyor prototipi emas, shakllanish jarayonidagi interregional muhit sifatida baholashga asos beradi.

Xulosa va takliflar. Tahlil Amir Temur davri kitobat ishi tarixshunosligi tavsifiy va uslubiy yondashuvlardan kompleks tarixiy-kodikologik tahlilga tomon rivojlanganini ko'rsatdi. Rieu, Martin va Gray qo'lyozma hamda tasviriy materiallarni ilmiy muomalaga kiritgan bo'lsa [4; 8; 9], Tauer "Zafarnoma" qo'lyozmalarini qiyoslash orqali matnshunoslik bosqichini mustahkamladi [5; 6]. Lentz va Lowry Samarqandni turli hududlardan kelgan ustalar va badiiy tajribalar uchrashgan interregional makon sifatida talqin qildilar [3]. Mukminova va Necipoğlu kitobatning moddiy-texnologik asoslarini tadqiqot doirasiga olib kirdi [10; 11], Soucek va Diez albomlari bo'yicha tadqiqotlar esa atribusiyani verifikatsiya qilish zaruratini kuchaytirdi [13; 14].

Mavjud dalillar Amir Temur davrida kitobga ehtiyoj, tarixnavislik, saroy patronaji va yuqori malakali ustalar to'planishi mavjud bo'lganini ko'rsatadi, ammo qo'lyozma ishlab chiqarishning barcha bosqichlari yagona markazlashgan ma'muriy tizim orqali boshqarilganini tasdiqlash uchun yetarli emas. Shu bois "saroy kitobat muhiti" atamasi hozirgi manbaviy holatga mosroqdir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda "Amir Temur buyurtmasi", "Amir Temur saroyiga mansub qo'lyozma", "Amir Temur davrida yaratilgan qo'lyozma" va "keyinchalik Temuriylar kolleksiyasiga kirgan qo'lyozma" tushunchalarini qat'iy farqlash zarur. Har bir kodeksning sanasi, yaratilgan joyi, kolofoni, xattoti, qog'ozi, bezagi, muqovasi va provenansi alohida tekshirilgandagina Samarqand kitobat muhitining tarixiy qiyofasini ishonchliroq tiklash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. 2-kitob / Arab tilidan tarjima va izohlar U. Uvatovniki. – Toshkent: Mehnat, 1992. – B. 70, 87.
2. Woods J.E. The Rise of Timurid Historiography // Journal of Near Eastern Studies. – 1987. – Vol. 46. – P. 81–108.
3. Lentz T.W., Lowry G.D. Timur and the Princely Vision: Persian Art and Culture in the Fifteenth Century. – Washington, D.C.: Smithsonian Institution Press, 1989.
4. Rieu Ch. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. Vol. I. – London: British Museum, 1879. – P. 170–172.
5. Nizamuddin Šami. Histoire des conquêtes de Tamerlan intitulée Zafarnama. Édition critique par Felix Tauer. Tome I. – Praha: Orientální ústav, 1937. – 295 p.
6. Nizamuddin Šami. Histoire des conquêtes de Tamerlan intitulée Zafarnama. Édition critique par Felix Tauer. Tome II. – Praha: Nakladatelství Československé akademie věd, 1956. – 320 p.
7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan Y. Hakimjonov tarjimasi; nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir B. Ahmedov. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 528 b.
8. Martin F.R. Miniatures from the Period of Timur in a MS. of the Poems of Sultan Ahmad Jalair. – Vienna: Adolf Holzhausen, 1926. – 37 p. + plates.
9. Gray B. Persian Painting. – Geneva: Skira, 1961.
10. Mukminova R.G. Craftsmen and Guild Life in Samarqand // Timurid Art and Culture: Iran and Central Asia in the Fifteenth Century / Ed. L. Golombek, M. Subtelny. – Leiden: E.J. Brill, 1992. – P. 18–33.
11. Necipoğlu G. Geometric Design in Timurid/Turkmen Architectural Practice: Thoughts on a Recently Discovered Scroll and Its Late Gothic Parallel // Timurid Art and Culture: Iran and Central Asia in the Fifteenth Century / Ed. L. Golombek, M. Subtelny. – Leiden: E.J. Brill, 1992.
12. Dost-Muhammad. Preface to the Bahram Mirza Album // A Century of Princes: Sources on Timurid History and Art / Selected and translated by W.M. Thackston. – Cambridge, Massachusetts, 1989.
13. Soucek P.P. 'Abd-al-Hayy, K̲āja // Encyclopaedia Iranica. – 1982.
14. Gonnella J., Weis F., Rauch C. (eds.). The Diez Albums: Contexts and Contents. – Leiden–Boston: Brill, 2016. – 618 p.